



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



SURXONDARYO VILOYATIDA BAJARILGAN QURILISH ISHLARI ASOSIY KO'RSATKICHLARI

2023- YIL YANVAR-AVGUST

SURXONDARYO VILOYATIDA FAOLIYAT KO'RSATAYOTGAN QURILISH KORXONALARI

2023- yilning 1-sentabr holatiga Surxondaryo viloyatida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni 2 410 tani tashkil etdi.

Qurilish korxonalarining katta qismi, ya'ni 593 tasi yoki viloyatdagi jami korxonalarining 24,6 % i Termiz shahrida joylashgan.

2023- yil 1-sentabr holatiga qurilish korxonalarini soni, birlikda



Termiz sh.	593
Jarqo'rg'on t.	228
Termiz t.	200
Denov t.	167
Sariosiyo t.	167
Boysun t.	147
Qumqo'rg'on t.	136
Sho'rchi t.	130
Angor t.	120
Qiziriq t.	117
Sherobod t.	95
Muzrabot t.	94
Oltinsoy t.	82
Uzun t.	68
Bandixon t.	66

1 352

Bino va inshootlar qurilishi

559

Fuqarolik obyektlarini qurish





499

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Shuningdek, Jarqo'rg'on tumanida 228 ta (viloyat bo'yicha ularning jami soniga nisbatan 9,5 %), Termiz tumanida – 200 ta (8,3 %) qurilish korxonalarini mavjud bo'lib, qolgan hududlarga nisbatan kattaroq ko'rsatkichga ega.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi (yanvar-avgust uchun)


2023- yilning yanvar-avgust oylarida, Surxondaryo viloyatida jami 4 653,9 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 106,1 % ni tashkil etdi.



Oldingi yilning mos davriga nisbatan



Maʼlumot uchun: qurilish faoliyati bu – oʻz kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.



2023- yilning yanvar-avgust oylarida Surxondaryo viloyatida qurilish ishlari

Hududlarning hajmi va 2022- yilning mos davriga nisbati,
mlrd. so‘m va foizda


	Qurilish ishlari, mlrd. so‘m	O‘shish sur‘ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da
Surxondaryo viloyati	4 653,9	106,1	100,0
Termiz sh.	1 464,6	124,1	31,5
tumanlar:			
Oltinsoy	99,2	106,0	2,1
Angor	220,7	118,2	4,8
Bandixon	86,0	103,8	1,9
Boysun	326,9	105,1	7,0
Muzrabot	187,2	105,9	4,0
Denov	497,5	105,2	10,7
Jarqo‘rg‘on	303,8	103,8	6,5
Qumqo‘rg‘on	167,7	96,4	3,6
Qiziriq	135,3	84,2	2,9
Sariosiyo	490,0	84,6	10,5
Termiz	255,3	100,5	5,5
Uzun	105,6	88,0	2,3
Sherobod	192,5	101,1	4,1
Sho‘rchi	121,6	106,9	2,6

2023- yilning yanvar-avgust oylarida hududlar kesimida xususan, Termiz shahri (1 464,6 mlrd. so‘m), Sariosiyo tumani (490,0 mlrd. so‘m) va Denov tumanida (497,5 mlrd. so‘m) qurilish ishlarining yuqori hajmi qayd etildi.

2023- yilning yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2023- yilning yanvar-avgust oylarida Surxondaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 76,1 % ulushni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 111,7 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 18,1 % ulushni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 91,3 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 5,7 % ulushni va 2022- yilning mos davriga nisbatan 98,5 % ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan obyektlar kiritiladi.

2023- yilning yanvar-avgust oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi


Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 76,0 % i yoki 3 535,3 mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

390,9 mlrd. soʻm Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan 390,8 mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 11,1 % ni tashkil etdi.

2 075,4 mlrd. soʻm Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan 2 075,4 mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 58,7 % ni tashkil etdi.

1 069,0 mlrd. soʻm Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 1 069,0 mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 30,2 % ni tashkil etdi.


Yillar kesimida yangi qurilishning hajmi va ulushi



2023- yilning yanvar-avgust oylarida bino va inshootlar qurilishi asosiy ko'rsatkichlari

Korxonalar turlari bo'yicha

Jami bino va inshootlarni qurish – 3 540,6 mlrd. so'm



Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015- yilning 1- yanvaridan boshlab, “O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mahsulotlar (mahsulot, ish, xizmat) statistik tasniflagichi (MST)”ga muvofiq **“Qurilish” faoliyati bo‘yicha “faoliyat turi bo‘yicha o‘z kuchi bilan amalga oshirilgan ishlar hajmi”** ko‘rsatkichi qo‘llaniladi..

Bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 4,8 % ni tashkil etib, 2022- yilning mos davridagi ko‘rsatkichga nisbatan 4,1 % punktga ko‘paydi.


Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelgan ulush 2022- yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 4,0 % punktga kamayib, 61,8 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2022- yilning mos davriga nisbatan 0,1 % punktga kamayib, 33,4 % ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-avgust oylarida fuqarolik obyektlarini qurish asosiy ko'rsatkichlari

Korxonalar turlari bo'yicha

Fuqarolik obyektlarini qurish, 847,1 mlrd. so'm




Fuqarolik obyektlari qurilishiga avtomobil yo'llari, ko'chalar, ko'priklar va tunnellar, temir yo'llar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sug'orish tizimlari, sanoat inshootlari, truboprovodlar va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi og'ir konstruksiyalarni qurish kiradi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 28,2 % ni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 4,2 % punktga kamaydi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 71,8 % (4,2 % punktga ko'payish).

2023- yilning yanvar-avgust oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari asosiy ko'rsatkichlari

Korxonalar turlari bo'yicha

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari, 266,2 mlrd. so'm




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo'yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog'ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o'z ichiga oladi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan 4,4 % punktga kamaydi va 4,4 % ni tashkil etdi.

Qolgan 95,6 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 4,4 % punktga ko'paydi.


2023- yilning yanvar-avgust oylarida korxonalar turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Qurilish ishlari hajmining tarkibi, *mlrd. so'mda*




Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

Jami hajmga nisbatan ulushi




Yirik qurilish tashkilotlari

2022- yilning mos davri bilan solishtirganda –
121,3 %



Kichik korxonalar va mikrofirmalar

2022- yilning mos davri bilan solishtirganda –
104,8 %



Norasmiy sektor

2022- yilning mos davri bilan solishtirganda –
104,7 %

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2023- yilning yanvar-avgust oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Yirik qurilish tashkilotlari, jamiga nisbatan ulushi




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2023- yilning yanvar-avgust oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 418,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 121,3 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 1,0 % ga ko'payib, 9,0 % ni tashkil etdi.

Xo'jalik usulida bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2023- yilning yanvar-avgust oylarida bajarilgan qurilish ishlari

Hududlarning hajmi, mln. soʻmda



Jamiga nisbatan ulushi



Sariosiyo tumani



Termiz shahri




Jarqoʻrgʻon tumani

Maʼlumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Termiz shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 14,3 % i), Sariosiyo tumani (35,6 %) va Jarqoʻrgʻon tumanida (6,8 %) qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 2023- yilning yanvar-avgust oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, jamiga nisbatan ulushi




2023- yilning yanvar-avgust oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 65,6 % i to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 1,8 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 104,8 % ni tashkil etgan holda 3 050,9 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.



2023- yilning yanvar-avgust oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan ishlar

Hududlarning hajmi, mlrd. so'm



1 169,7
mlrd. so'm

Termiz shahri



309,0
mlrd. so'm

Denov tumani




216,3
mlrd. so'm

Boysun tumani

Ma'lumot uchun: ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Termiz shahrida (1 169,7 mlrd. so'm), Denov tumanida (309,0 mlrd. so'm) va Boysun tumanida (216,3 mlrd. so'm) qayd etildi.

2023- yilning yanvar-avgust oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor, jamiga nisbatan ulushi



Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 25,4 % ni yoki 1 184,2 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 104,7 % ni tashkil etdi. Shundan 968,7 mlrd. soʻmi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga toʻgʻri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 103,5 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 100,4 mlrd. soʻmni va 115,2 % ni, yakka tartibdagi turar-joylarni taʼmirlash ishlari 115,1 mlrd. soʻmni va 107,0 % ni tashkil etdi.



2023- yilning yanvar-avgust oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmidagi norasmiy sektor

Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda

Surxondaryo viloyati



188,5 mlrd. soʻm
Denov tumani



129,4 mlrd. soʻm
Sariosiyo tumani




110,6 mlrd. soʻm
Boysun tumani


Maʼlumot uchun: koʻrib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Denov tumanida (188,5 mlrd. soʻm), Sariosiyo tumanida (129,4 mlrd. soʻm) va Boysun tumanida (110,6 mlrd. soʻm) qayd etildi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Yanvar-avgust oylaridagi hajm, mlrd. so'mda



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 22,6 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 4 631,3 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 0,5 % va 99,5 % ni tashkil etdi.



Ma'lumot uchun: nodavlat mulk obyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Oltinsoy tumanida (ushbu viloyatdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 100,0 % i), Angor tumanida (qurilish ishlari umumiy hajmining 100,0 % i) va Boysun tumanida (ushbu viloyatdagi umumiy qurilish ishlarining 100,0 % i) qayd etildi.

Qurilish ishlari

USLUBIY TUSHUNTIRISHLAR

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari maydoni rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Kapital qurilishga pudrat shartnomasi – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o'ziga olgan holda obyektни qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko'rsatadi yoki ish jabhasini ta'minlaydi, ularni qabul qiladi va to'lovlarni amalga oshiradi.

Qurilish tashkilotlariga – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog'liq chuqur qidiruv burg'ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug'ullanuvchi burg'ulash tashkilotlari kiritiladi.

Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi
Tel. 76 225-65-59 (7520)